

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

AZIZOV BEKZOD G‘AYRAT O‘G‘LI

**BAHORGI BUG‘DOYNI INTENSIV TIPDAGI, HOSILDOR, ABIOTIK
OMILLARGA BARDOSHLI, DON SIFATI YUQORI BOSHLANG‘ICH
ASHYO VA NAVINI YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz - 2025

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Azizov Bekzod G‘ayrat o‘g‘li

Bahorgi bug‘doyni intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori boshlang‘ich ashyo va navini yaratish3

Азизов Бекзод Гайрат угли

Создание исходного материала и сортов яровой пшеницы интенсивного типа, высокоурожайных, устойчивых к абиотическим факторам, с высоким качеством зерна.....21

Azizov Bekzod Gayrat ugli

Creatin of sprong wheat of intensive type, grain yield, resistant to abiotic factors, high quality grain starting material and variety.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JANUBIY DEHQONCHILIK ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

AZIZOV BEKZOD G‘AYRAT O‘G‘LI

**BAHORGI BUG‘DOYNI INTENSIV TIPDAGI, HOSILDOR, ABIOTIK
OMILLARGA BARDOSHLI, DON SIFATI YUQORI BOSHLANG‘ICH
ASHYO VA NAVINI YARATISH**

06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Qx.1099 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (tdmau.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.Ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Jo‘rayev Diyor Turdiqulovich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Xudarganov Kamoliddin Omonboyevich qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor Abduazimov Akbar Muxtorovich qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot	O‘simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti huzuridagi PhD.03/28.08.2024.Qx.181.01 raqamli. Ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____, soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil:190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri Islom Karimov ko‘chasi № 284-uy. Tel: +99876-221-87-20; e-mail: info@tdmau.uz; Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti 3-o‘quv binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№____ -raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil:190100, Surxondaryo viloyati, Termiz shahri Islom Karimov ko‘chasi № 284-uy. TerDMAU Tel: +99876-221-87-20)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

N.J.Nurmatov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., professor

SH.M.Jumayev

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., (PhD) dotsent

M.X.Aramov

Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda global iqlim o'zgarishi kuzatilib, yer sharida havo haroratining 2°C gacha ko'tarilishi, yog'ingarchilik miqdorining kamayishi, turli mintaqalarda anomal xolatlarni tez-tez ro'y berishiga olib kelmoqda. Dunyo bo'yicha "340 mln gektar maydonga boshqoli don ekinlari yetishtiriladi, shulardan 17 foizini bahorgi yumshoq bug'doy navlari egallaydi. Bahorgi bug'doy yetishtiriladigan mamlakatlarga - AQSh, Xitoy, Rossiya, Kanada, Hindiston, Qozog'istonda donli ekinlarning 55% ni, oziq-ovqat uchun 45% ni, esa chorva ozuqasi sifatida foydalaniladi. Shundan 10-15%, bahorgi bug'doydan olinadigan don hisobiga to'g'ri keladi"¹. Bundan ko'rish mumkinki, bahorgi bug'doyning hosildor, ertapishar, don sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan va bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan global iqlim o'zgarishiga bardoshli navlarni yaratish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dunyodagi kuzatilayotgan iqlim o'zgarishi turli sohalarga o'z salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi eng og'ir zarar ko'rgan tarmoqlardan biri bo'lib qolmoqda, haroratning oshishi tufayli sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. Ko'pgina mamlakatlar tadqiqotlari shuni ko'rsatmoqdaki, iqlim o'zgarishi qishloq xo'jaligida sezilarli yuqotishlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun iqlim o'zgarishi va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarni tahlil qilgan holda bahorgi bug'doyning intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori boshlang'ich ashyolarini tanlash hamda shular asosida turli iqlim sharoitiga mos keladigan yangi navlarini yaratish katta ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda 2024-yilda 1 mln 12 ming gektardan ortiq maydonlarga boshqoli don ekinlari ekilib, shundan bahorgi yumshoq bug'doyni 10 ming gektar atrofida ekib kelinmoqda. "Bu ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasida yalpi boshqoli don yetishtirish 1,2 % ni tashkil qilmoqda"². Aksariyat maydonlarga kuzgi bug'doy navlari ekilib, bahorgi bug'doy navlari deyarli kam ekilmoqda. Shu bois qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasiga intensiv usullarni, eng avvalo mahalliy tuproq-iqlim va ekologik sharoitlarga moslashgan yangi bahorgi bug'doy navlarini yaratishga va g'allachilikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan harakatlar strategiyasi" PF-5853-sonli farmonida "aholini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash" ustuvor vazifa etib belgilangan bo'lib³, bu borada bahorgi bug'doyni intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori navlarini yaratish uchun boshlang'ich manbalarini topish, ular ustida ilmiy izlanishlar olib borish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida urug'chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3683-son qarori, O'zbekiston

¹ <https://hozir.org/jahon-qishloq-xo'jaligiga-umumiy-tarif.html?page=2hozir.org>

² <https://agroinspeksiya.uz/ru/news/grain-2024-threshing-floors-are-overflowing-with-golden-grain>

³ <https://Lex.uz>

Respublikasining 2019-yil 16-fevraldagi “Urug‘chilik to‘g‘risida”gi O‘RQ-521-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “Qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘chiligini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-106-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni⁴ hamda mazkur sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Bahorgi bug‘doyning seleksiyasi bo‘yicha xorijiy mamlakatlarda ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan AQSH, Xitoy, Avstraliya, Kanada, Meksika, Italiya, Rossiya, Fransiya va Hindiston kabi ko‘pgina davlatlarida S.Rajaram, P.Kumar, R.Singh, R.Sharma, V.N.Lukyanenko, S.A.Kukovskiy O.A.Lyapunova N.V.Davidova, R.A.Richards, kabi olimlar Respublikamizda A.Amanov, R.Siddiqov, G‘.G‘aybullayev, B.M.Azizov, R.A.Udachin, Z.Ziyadullayev, A.Nurbekov, O.Amanov, A.Abdulazimov kabi olimlar bahorgi yumshoq bug‘doy navlarini har bir mintaqa sharoitiga mos navlarini tanlash va yuqori hosildorlikka erishish imkoniyatini yaratish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Biroq, respublikamizda bahorgi bug‘doy navlarini abiotik va biotik omillarga chidamliligini aniqlash, ota-ona shakllarini tanlash, chatishtirish hamda ulardan yangi navlar yaratish bo‘yicha seleksiya ishlari yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining Donli ekinlar seleksiya laboratoriyasini ilmiy tadqiqot ishlari rejasining № PZ-2020103083-raqamli “Qurg‘oqchilikka, zang kasalliklariga chidamli, don sifati yuqori bo‘lgan ikki faslli (duvarak) lalmi yangi bug‘doy navlarini yaratish” (2021-2022 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Respublikaning janubiy mintaqasi sug‘oriladigan maydonlari tuproq-iqlim sharoitlariga mos intensiv tipdagi, hosildor va abiotik omillarga bardoshli bahorgi yumshoq bug‘doyning ertapishar, issiqlik va qurg‘oqchilikka chidamli, don sifati yuqori boshlang‘ich ashyo va navini yaratish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

duragaylash yo‘li bilan hosildor, don sifati yuqori, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga; issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan ertapishar navlarini yaratish uchun otalik-onalik juftlarini tanlash;

F₁-F₂ duragay avlodlarda qimmatli xo‘jalik belgilarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligini tahlil qilish;

⁴ <https://strategy.uz/index.php?news=1767>

bahorgi bug‘doy navlarini issiqlik va qurg‘oqchilikka chidamliligini barg orqali xlorofill ko‘rsatkichi, suv saqlash, suv taqchilligi va oqsilning koagulyatsiyasi orqali baholash;

bahorgi bug‘doy navlarini laboratoriya va sun‘iy fonida (provakatsion) qurg‘oqchilikka chidamliligini baholash orqali chidamli tizmalarni tanlab olish;

bahorgi bug‘doyning mahalliy sharoitda yaratilgan tizmalarida ertapisharlik, abiotik omillarga bardoshli, hosildorlik va don sifat ko‘rsatkichlariga ko‘ra yangi navini yaratish va Davlat nav sinash markaziga topshirishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati sug‘oriladigan och tusli bo‘z tuproqlar, bahorgi yumshoq bug‘doyning Janub Gavhari, Navro‘z, Parvoz navlari, xalqaro ilmiy markazlar (ICARDA va CIMMIT) dan keltirilgan 75 ta nav va tizmalar, 20 ta F_1 – F_2 duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida bahorgi bug‘doy nav va tizmalarida duragaylash ishlari, don sifat ko‘rsatkichlari, poya balandligi, boshqoq uzunligi, boshqoqdagi boshqoqchalar soni, 1000 dona don vazni belgilarining irsiylanishi va o‘zgaruvchanligi tahlillari hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishi tajribani joylashtirish va tajriba davomida fenologik kuzatish, hisob va tahlillar “Butunrossiya O‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti uslubi”, dala tajribalarini rendomizatsiyalari sxemasi “Complete block design” va “Alpha lattice design” asosida, chatishtirishda boshqoqchalarni bichish umum qabul qilingan “Yurev va boshqalar” usulida, duragaylarni chatishtirish Tvell uslubida (Merojko, Ezroxin, Yudin,) bajarildi. Dominantlik darajasi (hp) ko‘rsatkichining katta-kichikligi S.Wright formulasi asosida, (h^2) T.Lash formulasi asosida aniqlangan. korrelyatsiya darajasi Mordekey Kara, Foks uslubida aniqlandi. Qurg‘oqchilikka chidamlilik Kojushko usulida suniy provakatsion usulida, qurg‘oqchilikka chidamlilikni baholash V.V.Maymistova asosida, suv saqlash va suv taqchilligi L.S.Litvinova usuli asosida, o‘simliklarning issiqlikka chidamliligi Genkel usuli asosida aniqlandi. Kleykovina miqdori GOST 13586-1-68, don shishasimonligi GOST 10987-76, don namligi GOST 13586-5-93, don naturasi GOST 3040-55, 1000 ta don vazni GOST 10842-89, oqsil miqdori GOST 10846-91 bo‘yicha O‘ZDST-880 talablariga mosligi taqqoslanib o‘rganildi. Olingan ma‘lumotlarning matematik-statistik tahlili esa B.A.Dospexov uslubi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qashqadaryo viloyati sharoitida nav va tizmalaridan duragaylash yo‘li orqali 17 ta duragay kombinatsiyalarining ota-ona belgilari nasldan-naslga berilishi ya‘ni abiotik omillardan issiqlikka va qurg‘oqchilikka chidamliligi, hosildorligi, don sifati yuqori bo‘lganligi ilmiy isbotlangan;

duragay avlodlarda qimmatli-xo‘jalik belgilarini tashqi muhit omillariga chidamli bo‘lgan belgilarining dominant holda irsiylanishi va o‘zgaruvchanlik xususiyatlari asosida F_1 va F_2 avlodlarning irsiylanishi ilmiy asoslangan;

bahorgi bug‘doyning dastlabki boshqoqlash fazasida bargdagi xlorofill miqdori 52,5%-57,5 % ni va oqsilning koagulyatsiyalanishi harorati 67 °C ga chidamli bo‘lgan 2 ta tizma issiqlikka chidamliligi bo‘yicha, suv tanqisligiga o‘rtacha 11,6%-12,4 % ni, suv saqlash qobiliyati bo‘yicha 46,6%-41,3%, ni 2 ta tizmalari

qurg'ochilikka chidamliligi bo'yicha tanlab olingan;

sun'iy fonida (provakatsion) qurg'ochilikka chidamliligini baholash bo'yicha o'rganilgan nav va tizmalar orasida andoza navlariga nisbatan 2 ta tizmada hosildorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lib, ya'ni KR19-19thDSBWYT-29782 (Barqaror-24 navi) va KR20-20thHTSBWYT-38 tizmalari 2-7 sentner farq bilan andoza navlardan ustunlik qilib seleksiya ishlariga jalb qilingan;

bahorgi bug'doyning mahalliy sharoitda yaratilgan tizmalarida ertapisharlik, abiotik omillarga bardoshli, hosildorlik va don sifat ko'rsatkichlari bo'yicha andoza navlardan ustun bo'lgan yangi "Barqaror-24" navi yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

respublikamizning janubiy mintaqalari uchun bahorgi yumshoq bug'doyning o'rganilgan nav va namunalaridan issiqlikka va qurg'ochilikka chidamli, ertapishar, hosildorligi va don sifati yuqari bo'lganlari boshlang'ich manba sifatida tanlab olinib, seleksiya jarayonining keyingi bosqichlarida donor sifatida chatishtirish uchun tavsiya qilingan;

tanlangan nav va namunalarni chatishtirish asosida ertapishar va issiqlikka chidamli duragay kombinatsiyalari yaratilgan va genetik belgilari o'zida aks ettirilgan tizmalar tanlab olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda an'anaviy va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarni nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ilmiy hamjamiyat tomonidan davlat fundamental va amaliy loyihalarini bajarish davomida tan olinganligi, populyatsion ma'lumotlarni zamonaviy dasturlar asosida statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yumshoq bug'doyning ekologo-geografik guruhlariga baho berish asosida ertapishar, hosildor, donning texnologik sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan, janubiy mintaqalar sharoitiga mos, intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori boshlang'ich ashyo hamda nav va namunalar tanlab olinib, chatishtirish o'tkazilib, ota-ona shakllarining umumiy va xususiy kombinatsion qobiliyatlari aniqlanganligi, F₁-F₂ avlodlarida belgilarning irsiylanishi tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ertapisharlik hususiyati yuqori bo'lgan, oqsilga boy, qurg'ochilikka va issiqlikka chidamli tizmalarini ajratib olish va keyingi seleksiya bosqichlarida ham baholash ishlarini davom ettirib, yangi nav yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Bahorgi bug'doyni intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori boshlang'ich ashyo va navini yaratish hamda amaliy seleksiyaga tavsiya etish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

Qashqadaryo viloyatining sug'oriladigan maydonlarida, bahorgi yumshoq bug'doyning yuqori abiotik omillariga, qurg'ochilikka va issiqlikka bardoshli "Barqaror-24" navi 2024-yilda Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining

Qarshi agrouchastkasining 1 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi №T-05/05-03-362-son ma‘lumotnomasi). Natijada, andoza Janub Gavhari naviga nisbatan yuqori hosil olinib, ushbu nav Qishloq xo‘jaligi ekinlari navlarini sinash markaziga topshirilgan;

Bahorgi yumshoq bug‘doyning tanlov sinov ko‘chatzorida 2021-2023 yillar davomida qurg‘ochilikka va issiqlikka chidamliligi hamda don hosildorligi yuqori bo‘lgan yangi “Barqaror-24” navi yaratilib, urug‘chilik tizimini kengaytirish maqsadida Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutini Qarshi agrouchastkasining dala tajriba maydonida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi №T-05/05-03-362-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ushbu navdan gektaridan 45,1 s/ga don hosili olingan va boshlang‘ich urug‘chiligini kengaytirish maqsadida 10 gektar maydonga yetadigan urug‘lar saralab olingan.

Yaratilgan bahorgi yumshoq bug‘doyning yangi “Barqaror-24” navi 2024-yilda Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida sug‘oriladigan maydonlarida “Murodbek Eldor o‘gli” fermer xo‘jaligida 2,0 gektar, “Nizomxon” fermer xo‘jaligida 2,5 gektar, Koson tumanida “Nurislom, Nursulton, Anvar” fermer xo‘jaligida 1,5 gektar, “Jamshid Nazarov” fermer xo‘jaligida 2,5 gektarga jami 8,5 gektar maydonga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2024-yil 12-noyabrdagi №T-05/05-03-362-son ma‘lumotnomasi). Buning natijasida, andoza “Janub Gavhari” naviga nisbatan, “Barqaror-24” navida 6,0-6,1 s/ga gacha yuqori hosil olinib rentabellik darajasi 41,8-55,5 % ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Dala va laboratoriya sharoitlarida o‘tkazilgan tajribalar Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi va Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan tuzilgan maxsus aprotatsiya komissiyasi tomonidan ijobiy baholangan, hisobotlar institutning ilmiy va uslubiy kengashlarida muhokama qilingan. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertasiya mavzusining dissertasiya bajarilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon etilgan ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob'ekt va predmeti, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertasiya hajmi va tarkibi bayon etilgan.

Dissertasiyaning **“Bahorgi yumshoq bug'doyning o'sish rivojlanishi va ertapishar xususiyatlari xaqidagi ilmiy manbalar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida, dissertatsiya mavzusi yuzasidan respublikamiz va xorijiy davlatlar olimlarining bahorgi bug'doy o'sish rivojlanishi va ertapishar xususiyatlari xaqidagi ilmiy manbalar tahlili, bahorgi yumshoq bug'doyning don sifat ko'rsatkichlari hamda tashqi muhitning abiotik omillariga ta'sirchanligi, bug'doy seleksiyasi sohasida bajarilgan ilmiy ishlar, hosildorlikni oshirishda navning roli va unga salbiy ta'sir etuvchi stress omillar, bo'yicha olingan ma'lumotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazilgan joyi, tuproq-iqlim sharoiti, boshlang'ich manbalar va tadqiqot uslublari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajribalar olib borilgan joy va uning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqotlarda foydalanilgan manbalarning tahliliy natijalari, seleksion va statistik usullar to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan

Dissertasiyaning **“Baxorgi yumshoq bug'doy $F_1 - F_2$ duragay kombinatsiyalarida qimmatli-xo'jalik belgilarini irsiylanishi va o'zgaruvchanligi”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotdan olingan natijalar tahlil qilingan. Ushbu bobda olib borilgan ilmiy izlanishlarga ko'ra, bahorgi yumshoq bug'doyning raqobatli nav sinash ko'chatzorida o'rganilib, o'simlikning ertapisharlik ko'rsatkichlari hisobga olingan holda, nav va tizmalar orasidan issiqlik, qurg'oqchilikka hamda don hosildorligi yuqori bo'lgan namunalar ishtirokida 2021-yilda 20 ta kombinatsiyada duragaylash ishlari olib borildi.

Poya balandligining uzun yoki kalta bo'lishi bahorgi bug'doy navlarning hosildorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, uning yuqori bo'lishida katta ahamiyatli hisoblanadi. Poya balandligining irsiylanishi tahlil qilinganda ota-ona belgilariga nisbatan 5 ta Janub Gavhari X Parvoz, KR20-DSBWYT-04 X Parvoz, KR19-DSBWYT-29639 X KR20-HTSBWYT-41, KR20-DSBWYT-04 X Janub Gavhari, Navro'z X KR20-ESBWYT-12 duragay kombinatsiyalarida dominantlik darajasi eng yuqori $h_p=5,00-13,00$ ko'rsatkichga ega bo'lib yuqori geterozis namoyonligi aniqlangan.

F_1 avlodlarda poya balandligining irsiylanish darajasi o'rganilganda 5 ta duragay kombinatsiyada dominantlik darajasi h_p o'ta yuqori $5,00-13,00$ ko'rsatkichga, 6 ta duragay kombinatsiyada h_p kuchli $2,00-4,33$ ko'rsatkichga, 5 ta duragay kombinatsiyada $h_p=1-1,50$ ko'rsatkichga va 3 ta duragay kombinatsiyada h_p oraliq $0,43-1,00$ ko'rsatkichga ega bo'lib salbiy xususiyatlar qayd qilindi.

Olib borilgan tadqiqotlarda F₁-duragay kombinatsiyada boshqoq uzunligi irsiylanishi o'rganilganida ota-ona belgilariga nisbatan 20 ta duragay kombinatsiyalaridan 17 ta duragay kombinatsiyada boshqoq uzunligi 14-15 sm bo'lgan bo'lsa, dominantlik darajasi hp=1,00 dan 9,02 gacha tashkil etdi. 6 ta KR20-DSBWYT-04 x Parvoz, KR20-DSBWYT-04 x Janub Gavhari, KR20-HTSBWYT-35 x KR20-DSBWYT-05, Navro'z x KR20-ESBWYT-12, Navro'z x KR20-DSBWYT-05, KR20-DSBWYT-04 X SBWYT-2017-P-72 F₁ duragay kombinatsiyada dominantlik darajasi hp=5,01 dan 9,02 gacha eng yuqori bo'lganlari aniqlandi. Qolgan 3 ta F₁ duragay kombinatsiyada dominantlik darajasi -1,00 va -1,05 ni tashkil qilgan holda salbiy ko'rsatgichga ega bo'ldi.

Demak Navro'z X KR20-ESBWYT-12 duragay kombinatsiyasida onalik shaklida boshqoq uzunligi 12 sm, otalik shaklida esa 11 sm ni bo'lsa, F₁ duragay - avlodda boshqoq uzunligi 14 sm hp=5,01 ni Navro'z X KR20-DSBWYT-05 duragay kombinatsiyasida onalik shaklida 11 sm, otalik shaklida esa 12 sm ni tashkil qildi. F₁ duragay avlodda boshqoq uzunligi 15 sm hp=7,01 gacha bo'lganligi aniqlandi hamda yuqori darajada dominant holda irsiylanishi aniqlangan.

Birinchi avlod duragay kombinatsiyalarda 1000 dona don vazni bo'yicha tahlil natijalariga ko'ra, ota-ona belgilariga nisbatan 20 ta duragaylardan 16 tasida dominantlik kuzatildi. Bunda dominantlik darajasi hp=1,15 dan 25,50 gacha ota ona belgilaridan ustunlik qildi (1-jadval).

1-jadval

Bahorgi yumshoq bug'doy F₁ duragay kombinatsiyalarida 1000 dona don vazni belgisining irsiylanishi (Qarshi 2022 y)

T/r	Nav va duragaylar, kombinatsiyalar nomi	Onalik shakl	Otalik shakl	1000 dona don vazni, g	
				F ₁	hp
1	Janub Gavhari X Parvoz	33,3	32,2	34,3	2,82
2	Janub Gavhari X Navro'z	37,7	35,6	34,4	-2,14
3	Janub Gavhari X KR20-DSBWYT-07	32,5	32,2	32,0	-2,07
4	Janub Gavhari X KR20-HTSBWYT-38	33,6	34,3	34,2	0,83
5	KR19-DSBWYT-29639 X Janub Gavhari	36,2	35	33,0	-4,33
6	KR19-DSBWYT-29639 X KR20-HTSBWYT-41	34,3	36,7	37,1	1,33
7	KR20-DSBWYT-04 X KR20-ESBWYT-39	31,3	29,2	33,6	3,15
8	KR20-DSBWYT-04 X SBWYT-2017-P-72	28,7	32,4	35,0	2,41
9	KR20-DSBWYT-04 X Parvoz	33,3	30,2	35,8	2,61
10	KR20-DSBWYT-04 X Janub Gavhari	36,1	31,6	35,6	0,78
11	KR20-HTSBWYT-35 X J.Gavhari	34,5	33,9	36,4	7,33
12	KR20-HTSBWYT-35 X KR20-DSBWYT-05	33,7	32,9	38,0	11,62
13	KR20-HTSBWYT-35 X KR20-ESBWYT-12	36,1	35,9	37,5	15,10
14	Navro'z X KR20-ESBWYT-12	36,1	32,7	36,4	1,15
15	Navro'z X KR20-DSBWYT-05	33,7	32,7	29,7	-7,04
16	Navro'z X Parvoz	33,3	33,2	35,8	25,50
17	KR20-20thESBWYT-05 X Janub Gavhari	32,2	32,6	33,5	5,50
18	KR19-DSBWYT-29782 X KR20-HTSBWYT-38	35,1	32,7	34,4	0,42
19	KR20-HTSBWYT-38 X Navro'z	32,7	33,6	35,0	4,11
20	KR20-20thDSBWYT-05 X KR20-DSBWYT-07	32,5	32,1	34,8	12,50

Shuningdek 5 ta KR20-20thDSBWYT-05 X KR20-DSBWYT-07, KR20-HTSBWYT-35 x Janub Gavhari, KR20-HTSBWYT-35 x KR20-DSBWYT-05, KR20-HTSBWYT-35 X KR20-ESBWYT-12 kombinatsiyada 1000 dona don vazni 34-38 g, ni tashkil qilgan holda ota-ona belgilaridan kuchli dominantlik hp=12,50

dan 25,50 gachani, tashkil etdi va yuqori geterozis namoyon bo'lganligi aniqlangan.

Bahorgi yumshoq bug'doyning F₂ duragay kombinatsiyada asosiy poya balandligi belgisining o'zgaruvchanlik darajasi va avlodlararo tarqalish xususiyati F₂ duragay avlodlarida o'zgarishini va avloddan avlodga o'tishini o'rganishni o'z ichiga oladi. F₂ duragay kombinatsiyada asosiy poya balandligi bo'yicha guruhlarga bo'lindi 40,0-45,0 sm dan, 76,0-80,0 sm gacha ketma-ketlikda keltirildi. F₂ duragaylarda poya balandligi belgisining o'zgaruvchanlik ko'lami nasldan-naslga berilishi Janub Gavhari X KR20-HTSBWYT-38 duragayda poya balandligi 46,0-50,0 sm belgisining o'zgaruvchanligi 3.2 %, tashkil etib 76,0-80,0 sm gacha bo'lganlari 3.1%, guruhdagi eng yuqori 34,4% ni, o'rtacha poya balandligi 80 smni ko'rsatdi. Variatsiya koeffitsiyenti 8,2% ni, belgilarning irsiylanishi h²=0,76 dan yuqori bo'lganligi, bu esa poya balandligi ota-ona shakillaridan o'zgaruvchanlik darajasini tahlil qilingan (2-jadval).

2-jadval

F₂ duragay kombinatsiyalarda asosiy poya balandligi belgisining o'zgaruvchanlik ko'lami va nasldan-naslga berilishi

T/r	Navlar va F ₂ duragay kombinatsiyalari	O'simlik soni, dona	Asosiy poya balandligi, sm., 100%							x±Sx	V%	h ²
			46,0-50,0	51,0-55,0	56,0-60,0	61,0-65,0	66,0-70,0	71,0-75,0	76,0-80			
1	Janub Gavhari	20,00			60,0	16,7	23,3			72,6±0,28	3,1	
2	Navro'z	20,00			32,2	36,6	31,2			72,8±0,49	2,5	
3	Parvoz	20,00			20,7	20,0	59,3			71,1±0,35	2,5	
4	KR20-DSBWYT-04	20,00			30,0	63,3	6,7			73,0±0,70	3,2	
5	KR20-20thESBWYT-05	20,00				46,7	53,3			70,1±0,75	3,0	
6	KR20- HTSBWYT-38	20,00			66,7	33,3				65,7±0,60	3,1	
7	Janub Gavhari X KR20-HTSBWYT-38	100,0	3,2	10,6	22,5	34,4	17,5	8,7	3,1	80,0±0,42	8,2	0,76
8	Janub Gavhari X Parvoz	100,0	1,9	5,6	26,9	27,5	24,4	10,0	3,8	78,1±0,59	7,7	0,66
9	Janub Gavhari X Navro'z	100,0	3,1	8,1	30,6	32,5	17,5	6,6		74,4±0,38	7,5	0,74
10	KR20-20thESBWYT-05 X J.Gavhari	100,0	4,0	11,3	33,8	33,1	13,1	2,9		72,8±0,41	7,1	0,73
11	KR20-DSBWYT-04 X J.Gavhari	100,0	1,9	4,0	30,3	35,0	23,1	4,8	0,9	75,9±0,23	5,6	0,71
12	Navro'z X Parvoz	100,0		5,6	28,8	6,3	28,8	8,8	1,9	77,8±0,38	6,2	0,71
13	Navro'z X 20thESBWYT-05	100,0	2,5	6,9	11,3	28,1	3,1	17,5	10,6	80,0±0,70	8,2	0,74
14	KR20-DSBWYT-04 X KR20-HTSBWYT-38	100,0	3,1	4,4	21,1	30,4	29,8	9,3	1,9	78,4±0,50	6,3	0,63
15	KR20-HTSBWYT-38 X Navro'z	100,0	3,1	11,3	22,5	39,4	16,9	5,6	1,3	75,5±0,41	6,8	0,63
16	KR20-DSBWYT-04 X Parvoz	100,0	2,5	10,6	15,2	30,6	21,9	15,9	1,7	77,8±0,24	8,5	0,72
17	Parvoz X 20thESBWYT-05	100,0	1,6	10,3	26,1	32,5	18,3	8,7	2,6	76,2±0,60	7,5	0,74
18	Parvoz X KR20-HTSBWYT-38	100,0	1,2	10,1	8,4	23,8	31,6	19,4	5,6	72,1±0,33	7,8	0,78

Variatsiya koeffitsiyenti V% belgining nisbiy o'zgaruvchanligini uning o'rtacha qiymatiga nisbatan o'lchaydi. Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi V% ko'proq o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi, pastroq V% esa ko'proq izchillikni ko'rsatadi.

F₂ o'simliklarida 1000 dona don vazni belgisining o'zgaruvchanlik ko'lami va nasldan-naslga berilishi o'rganilganda, F₂ duragay kombinatsiyasida ota-ona shakllariga nisbatan eng yuqori bo'lgan Janub Gavhari X Parvoz 1000 dona don vazni 26,0-30,0 g gacha bo'lgan oraliqda 2,5 %, 51-55 g gacha bo'lganlari 5,6 % ni guruhni tashkil etib, guruhdagi eng yuqori bo'lgan 36-40 g bo'lsa guruhlar bo'yicha o'simliklar 38,8 % ni tashkil etdi. Don vazni hisobiga o'rtacha 1000 dona don vazni 39,1 g, variatsiya koeffitsiyenti 7,1 % ni, belgilarning irsiylanishi h²=0,47 o'rtacha qiymat tashqi muhitning ta'siri ostida irsiylanish borligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning **“Raqobatli nav sinash ko'chatzorida bahorgi bug'doyni intensiv tipdagi, hosildor, abiotik omillarga bardoshli, don sifati yuqori**

boshlang'ich ashyo va navini baxolash" deb nomlangan to'rtinchi bobida. O'zbekistonda tez-tez sodir bo'ladigan garmsel bug'doyning o'suv davri davomida o'simlikka katta ta'sir ko'rsatib, hosildorlik va don sifatining pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi muammolarni o'rganish maqsadida Janubiy dehqonchilik ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba maydonida 2021-2023 yillar davomida tadqiqotlar olib borilgan. Bahorgi yumshoq bug'doy nav va tizmalarining urug' ekilgandan unib chiqish fazasiga o'tishini yillar kesimida o'rganilganda, 2021-yilda o'rtacha havo harorati 14,8 °C bo'lib, unib chiqish 8-12 mart yoki urug' ekilgandan unib chiqishgacha bo'lgan kun 7-8 kunni, 2022-yilda havo harorati 11,1 °C bo'lib, unib chiqish 8-13 mart yoki urug' ekilgandan unib chiqishgacha bo'lgan kun 9-10 kunni tashkil qildi va tabiiy ravishda bu harorat nav va tizmalarining unib chiqish tezligiga ham ta'sir o'tkazdi. 2023-yil mavsumida esa havo harorati 14,7 °C bo'lib

T/r	Nav va tizmalar nomi	Unib chiqish, sana	Tuplash, sana	Naychalash, sana	Boshoqlash, sana	Unib chiqishdan boshoqlashig	To'liq pishish, sana	O'suv davri davomiyliigi
1	Janub Gavhari (andoza)	10.mar	29.mar	14.apr	11.may	62±1,0	08.iyun	90±2,0
2	Navro'z (andoza)	10.mar	30.mar	13.apr	09.may	60±1,3	05.iyun	87±1,8
3	Parvoz (andoza)	11.mar	29.mar	13.apr	10.may	60±1,2	09.iyun	90±2,5
4	17 th SBWYT-2017-P-6 (New V)	11.mar	29.mar	12.apr	08.may	58±3,7	09.iyun	90±0,8
5	17 th SBWYT-2017-P-72	11.mar	29.mar	13.apr	09.may	58±2,5	07.iyun	89±1,5
6	KR20-20thDSBWYT-17	10.mar	29.mar	13.apr	08.may	59±2,5	06.iyun	88±3,7
7	KR19-19thDSBWYT-29782 (Barqaror-24)	10.mar	29.mar	12.apr	04.may	56±0,5	04.iyun	86±2,0
8	KR19-19thDSBWYT-29872	12.mar	29.mar	14.apr	08.may	57±3,0	07.iyun	88±3,0
9	KR20-20thDSBWYT-32	10.mar	29.mar	13.apr	06.may	57±1,8	07.iyun	89±1,8
10	KR19-19thDSBWYT-30140	10.mar	29.mar	12.apr	08.may	59±1,5	07.iyun	89±3,0
11	KR20-20thDSBWYT-04	10.mar	30.mar	13.apr	06.may	57±2,5	07.iyun	89±2,8
12	KR20-20thDSBWYT-05	11.mar	28.mar	12.apr	06.may	57±1,7	06.iyun	88±3,8
13	KR20-20thDSBWYT-07 (70)	10.mar	28.mar	13.apr	07.may	58±3,0	07.iyun	89±2,2
14	KR20-20thDSBWYT-30	10.mar	29.mar	13.apr	06.may	57±2,2	08.iyun	90±0,8
15	KR20-20thDSBWYT-44	11.mar	29.mar	12.apr	06.may	56±1,5	08.iyun	89±2,2
16	KR20-20thDSBWYT-41	10.mar	29.mar	12.apr	09.may	60±1,0	09.iyun	91±1,3
17	KR20-20thDSBWYT-35	11.mar	28.mar	13.apr	09.may	59±1,8	08.iyun	89±2,5
18	KR20-20thDSBWYT-12	10.mar	28.mar	12.apr	07.may	58±2,3	04.iyun	86±4,0
19	KR20-20thDSBWYT-37	11.mar	28.mar	13.apr	10.may	60±2,0	08.iyun	89±2,8
20	KR20-20thDSBWYT-39	11.mar	28.mar	12.apr	10.may	60±1,5	08.iyun	89±3,3
21	KR20-20thHTSBWYT-35 (67)	10.mar	28.mar	12.apr	08.may	59±1,5	07.iyun	89±2,3
22	KR20-20thDSBWYT-38	11.mar	28.mar	13.apr	07.may	57±3,5	08.iyun	89±1,5
23	KR20-20thHTSBWYT-41	10.mar	28.mar	12.apr	07.may	58±2,5	07.iyun	89±2,8
24	KR20-20thHTSBWYT-45	10.mar	28.mar	12.apr	08.may	59±1,7	08.iyun	90±2,3
25	KR20-20thDSBWYT-48	11.mar	29.mar	13.apr	08.may	58±3,0	08.iyun	88±1,5
	Eng kichik ko'rsatkich	10.mar	28.mar	12.apr	04.may	56	04.iyun	86
	O'rtacha ko'rsatkich	10.mar	29.mar	12.apr	08.may	58	07.iyun	89
	Eng yuqori ko'rsatkich	12.mar	30.mar	14.apr	11.may	62	09.iyun	91
	<i>EKF₀₅</i>					2,82		3,36
	<i>EKF₀₅ %</i>					4,831		3,784
	<i>S</i>					1,74		2,08
	<i>Sv %</i>					3,0		2,3

unib chiqish 10-11 mart kuni, havo harorati evaziga 7-8 kundan so'ng unib chiqqanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Bahorgi yumshoq bug'doyning raqobatli nav sinash ko'chatzoridagi nav va

namunalarning o'suv davri, kun (Qarshi 2021-2023 yy).

Bahorgi bug'doyning boshqolash va gullash davrida havo harorati +20-24 °C bo'lishi lozim, agarda bug'doyda boshqolash va gullash davrida havo harorati +35-40 °C bo'lishi va havoning quruq kelishi donning puch bo'lishi va sifatining buzilishiga olib keladi. O'rtacha uch yillik ko'rsatkichlari bo'yicha may oyining birinchi o'n kunligida havo harorati +29,2 °C iliq kelgan bo'lsa, shamol tezligi 16,2 m/s biroz yuqori bo'ldi va boshqolash davri 4-11 may kunlariga to'g'ri keldi. May oyining ikkinchi o'n kunligida havo harorati +24,1 °C gacha ko'tarilib shamol tezligi 22,1 m/s dan o'rtacha 21,5 m/s gacha yuqorilashib (garmisel) bo'lganligi o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda abiotik omillar chidamlilik darajasini baholash yanada oson kechdi. Shuningdek unib chiqish-boshqolash o'suv davri 56 kundan 62 kungacha bo'lganligi aniqlandi. Andoza navlariga nisbatan erta muddatda to'liq pishish hamda o'suv davri qisqa bo'lgan 2 ta tizmada KR19-19thDSB-29782 (Barqaror-24), KR20-20thDSBWYT-12 to'liq pishish sanasi 4-5 iyun, unib chiqishdan pishishgacha bo'lgan kun esa 86-kun, yani o'suv davri andoza navlardan 3-4 kun farq bilan erta muddatda pishib yetildi va tanlab olindi.

Hosildorlik bu navning eng muhim belgisi bo'lib, seleksiya muammolarini yechishda asosiy omildir. Shuningdek tadqiqot natijalariga ko'ra, uch yillik hosildorlik ko'rsatkichlari tahlil qilinganda, andoza navlardan hosildorlik uch yil mobaynida ham yuqori bo'lgan 25 ta tizmalar orasidan 3 ta tizmani ustunligi aniqlandi (4-jadval).

4-jadval

Bahorgi bug'doy nav va tizmalarining hosildorlik ko'rsatkichlari

T/r	Nav va tizmalar nomi	Hosildorlik, s/ga				Andoza navlaridan farqi	
		2021	2022	2023	o'rtacha	s/ga	Guruh
1	Janub Gavhari (andoza)	36,5	34,2	35,1	35,3±1,2	0	
2	Navro'z (andoza)	36,1	35,9	37,2	36,4±0,7	0	
3	Parvoz (andoza)	35,5	36,8	35,3	35,9±0,8	0	
4	17 th SBWYT-2017-P-6 (New V)	37,9	35,9	36,5	36,8±1,0	0,8	II
5	17 th SBWYT-2017-P-72	36,0	34,3	35,3	35,2±0,9	-0,8	III
6	KR20-20thDSBWYT-17	38,6	39,1	40,2	39,3±0,8	3,3	I
7	KR19-19thDSBWYT-29782 (Barqaror-24)	41,6	39,5	41,9	41,0±1,2	5,0	I
8	KR19-19thDSBWYT-29872	36,5	34,3	35,2	35,3±1,1	-0,7	III
9	KR20-20thDSBWYT-32	30,3	31,1	29,9	30,4±0,6	-5,6	III
10	KR19-19thDSBWYT-30140	33,2	32,5	34,3	33,3±0,9	-2,7	III
11	KR20-20thDSBWYT-04	33,0	32,6	31,9	32,5±0,6	-3,5	III
12	KR20-20thDSBWYT-05	32,0	30,9	31,5	31,5±0,6	-4,5	III
13	KR20-20thDSBWYT-07 (70)	37,1	36,6	35,8	36,5±0,7	0,5	II
14	KR20-20thDSBWYT-30	34,4	33,5	34,1	34,0±0,4	-2,0	III
15	KR20-20thDSBWYT-44	29,3	31,5	30,3	30,4±1,1	-5,4	III
16	KR20-20thDSBWYT-41	34,5	35,8	33,9	34,7±0,9	-1,3	III
17	KR20-20thDSBWYT-35	34,2	36,2	35,9	35,4±1,0	-0,6	III
18	KR20-20thDSBWYT-12	41,8	40,3	39,5	40,5±1,2	4,5	I
19	KR20-20thDSBWYT-37	33,5	35,0	34,9	34,5±0,8	-1,5	III
20	KR20-20thDSBWYT-39	34,5	33,3	32,9	33,6±0,8	-2,4	III
21	KR20-20thHTSBWYT-35(67)	31,3	30,9	29,9	30,7±0,7	-5,3	III
22	KR20-20thDSBWYT-38	32,4	33,5	34,1	33,3±0,9	-2,7	III
23	KR20-20thHTSBWYT-41	29,5	28,2	29,9	29,8±0,9	-6,2	III
24	KR20-20thHTSBWYT-45	31,9	30,5	31,2	31,2±0,7	-4,8	III
25	KR20-20thDSBWYT-48	31,0	32,5	33,5	32,3±1,3	-3,7	III

Eng yuqori ko'rsatkich	41,8	40,3	41,9	41,0	5,0
O'rtacha ko'rsatkich	34,8	34,2	34,4	34,4	0,2
Eng kichik ko'rsatkich	29,3	28,2	29,9	29,8	-6,2
<i>EKF₀₅</i>	1,70	1,64	1,54	1,47	
<i>EKF₀₅ %</i>	4,897	4,852	4,752	4,285	
<i>S</i>	1,05	1,02	1,07	1,09	
<i>Sv %</i>	3,0	3,0	2,9	2,7	

(Qarshi 2021-2023 yy).

Bular KR19-19thDSB-29782 (Barqaror-24) 41,0 s/ga, KR20-20thDSBWYT-12 tizmasida 40,5 s/ga hamda KR20-20thDSBWYT-17 tizmasida 39,3 s/ga bo'lganligi aniqlanib, nav va tizmalardan 3,0-5,0 s/ga farq bilan I-guruhda yuqoriligi aniqlandi.

Ikkinchi guruhda 2 ta tizmada 0,5-0,8 s/ga farq bilan andoza navlardan ustunlik qilindi. III-guruhga mansub bo'lgan, ya'ni (minus) umuman farq kuzatilmagan tizmalar soni 17 tani tashkil etdi va tizmalar orasidan 3 ta tizma seleksiyaning keyingi bosqichi uchun tanlab olindi.


